



## Yangi O'zbekistonning Xalqaro Maydondagi O'rni

**Xudoybergenova P.T.**

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti, Ijtimoiy Fanlar Kafedrası Datsenti

**Jumaqulova Mohinur Abrorovna**

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti 2-Stomatologiya Fakulteti 1-Kurs Talabasi

**Annotatsiya:** Bugungi globalizatsiya davrida yoshlarimizni vatanparvar ruxda tarbiyalash va jaxonda uz urnimizni topishimiz eng asosiy vazifalardan biridir. Ushbu maqolada O'zbekistonning boy tarixi taraqqiyoti, qadimgi davrlardan boshlab shakllangan ilmiy va madaniy merosi tahlil qilinadi. Shuningdek, mustaqillikdan keyingi davrda, ayniqsa "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, mamlakatning xalqaro maydondagi o'rni hamda ilm-fan, madaniyat va sport sohalaridagi yutuqlari keng yoritilgan. Maqolada O'zbekistonning global hamjamiyatdagi nufuzi ortib borayotgani va uning kelajak taraqqiyot istiqbollari haqida xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston tarixi, Yangi O'zbekiston, xalqaro maydon, ilm-fan, madaniyat, sport, islohotlar, meros, taraqqiyot, global hamkorlik.

### **Kirish**

O'zbekiston qadimiy tarixga ega bo'lgan, jahon sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan mamlakatlardan biridir. Uning hududida qadimdan rivojlangan davlatlar, ilmiy markazlar va madaniy o'choqlar shakllangan. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy kabi allomalar faoliyati nafaqat mintaqaviy, balki jahon ilm-fani taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan.[1]

Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini mustaqil ravishda belgilab, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida muhim yutuqlarga erishdi. So'nggi yillarda "Yangi O'zbekiston" g'oyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatni yangi bosqichga olib chiqmoqda.[2] Bu jarayon nafaqat ichki rivojlanishni, balki xalqaro maydonda mamlakat nufuzining oshishini ham ta'minlamoqda. Jumladan, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakat rivoji uchun yoshlarga juda katta imkoniyatlar yaratib bermoqdalar. Mazkur maqolaning maqsadi — O'zbekistonning tarixiy ildizlari, zamonaviy taraqqiyoti hamda uning xalqaro maydondagi o'rni, ilm-fan, madaniyat va sport sohalaridagi yutuqlarini tahlil qilishdan iborat.[3]

### **Metodologiya.**

#### **O'zbekistonning qadimgi davrdagi taraqqiyoti**

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida bejizga "O'z tarixini bilmaydigan kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q" deya ta'kidlanmaydi. Yurtimiz

tarixida yuz bergan mash'um xatarlar va ular ta'sirida xalqimizning tortgan jabrini bilishimiz, ana shu fojiali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi va buni teran tahlil qilib, doimo ogoh bo'lishimiz kerak. [4]

O'zbekiston hududi qadim zamonlardan boshlab Markaziy Osiyoning eng rivojlangan sivilizatsiyalaridan biri bo'lib kelgan. Bu yerda ilk davlatlar shakllanib, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo rivoj topgan. Bizning xalqimizning ilm fanidagi tarakiyoti xakidagi ilk manba "Avesto" guvohlik beradi. Qadimgi davrda ayniqsa uchta yirik tarixiy hudud - Baqtriya, So'g'diyona va Xorazm muhim rol o'ynagan.[5]

## **Qadimgi davlatlar**

**Baqtriya** (Amudaryo yuqori oqimi hududi) qadimda rivojlangan davlatlardan biri bo'lib, u yerda sug'orma dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik taraqqiy etgan. Baqtriya qadimdan Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo yo'llarining muhim markazi bo'lgan.[6]

**So'g'diyona** (Zarafshon vodiysi) esa savdo va madaniyat markazi sifatida mashhur bo'lgan. So'g'diyonlar muhim savdogarlar bo'lib, ular uzoq hududlarga borib savdo qilganlar. Ayniqsa, ular Buyuk Ipak yo'li orqali xalqaro savdoni rivojlantirishda katta hissa qo'shgan.[7]

**Xorazm** (Amudaryoning quyi oqimi) esa o'zining qadimiy sug'orish tizimi, mustahkam davlat boshqaruvi va boy madaniyati bilan ajralib turgan. Bu hududda ilm-fan va yozuv madaniyati ham rivojlangan.[8]

Buyuk Ipak yo'li qadimgi davrning eng muhim savdo yo'llaridan biri bo'lib, Sharq va G'arb mamlakatlarini bog'lab turgan. Bu yo'l orqali ipak, ziravorlar, metall buyumlar va boshqa mahsulotlar almashilgan. Buyuk Ipak yo'li nafaqat iqtisodiy, balki madaniy ahamiyatga ham ega bo'lgan. U orqali turli xalqlarning urf-odatlarini, diniy qarashlari, ilmiy yutuqlari tarqalgan. Natijada O'zbekiston hududi madaniyatlar chorrahasi sifatida rivojlangan.[9]

## **Natijalar va muhokama.**

### **O'rta asrlarda ilm-fan va madaniyat rivoji**

O'zbekiston hududi o'rta asrlarda ilm-fan va madaniyat markazi sifatida katta rivoj topgan. VII–VIII asrlarda islom dini hududga kirib keldi, bu esa ta'lim tizimi va ilm-fan rivojiga katta turtki berdi. Shu davrda madrasalar va kutubxonalar tashkil etildi, olimlar turli fanlar bo'yicha izlanishlar olib bordi. IX–XII asrlar Sharq uyg'onish davri sifatida tarixga kirgan. Bu davrda ilm-fan yuksak darajaga ko'tarildi. O'zbek hududida yashab ijod qilgan mashhur olimlar quyidagilar: Muhammad al-Xorazmiy algebra faniga asos solgan, arifmetik va matematik tizimlarni rivojlantirgan; Abu Rayhon Beruniy astronomiya va geografiya sohalarida kashfiyotlar qilgan; Abu Ali ibn Sino esa tibbiyot fanini chuqur rivojlantirgan.[10] Ularning asarlari nafaqat o'rta asr Sharq olimlari uchun, balki keyinchalik Yevropa ilm-fani rivojiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shu tariqa, O'zbekiston hududi o'rta asrlarda ilm-fan, ta'lim va madaniyatning markaziga aylangan va xalqaro miqyosda e'tibor qozongan.[11]

XIV–XV asrlarda Amir Temur tomonidan kuchli va markazlashgan davlat barpo etildi. Bu davr siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivoj va madaniy yuksalish bilan ajralib turgan. Samarqand ilm-fan va madaniyat markaziga aylangan. Shu davrda mashhur olim Mirzo Ulug'bek rasadxona qurib, yulduzlar jadvalini yaratdi. Uning ilmiy ishlari astronomiya va matematikaga katta hissa qo'shdi va keyingi avlod olimlari uchun asos bo'ldi.[12] Shuningdek, XIV–XV asrlarda Alisher Navoiy o'zbek adabiyotining asoschisi sifatida tarixda muhim o'rin egalladi. Uning she'rlari, dostonlari va nasriy asarlari o'zbek madaniy merosining boyligiga aylangan. Shu tariqa, O'zbekiston hududi qadimgi va

o'rtasrlarda nafaqat savdo va siyosiy markaz, balki ilm-fan, madaniyat va adabiyotning yirik markazi sifatida rivojlandi. Bu meros keyingi asrlar ilm-fani va madaniyati uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilgan.[13]

### **Mustamlakachilik davri va mustaqillik**

XIX asrda O'zbekiston hududi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinib, mustamlakaga aylantirildi. Bu davrda mahalliy siyosiy mustaqillik yo'qolib, hudud markazlashgan boshqaruv tizimi ostida bo'ldi. Shu bilan birga, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda o'zgarishlar sodir bo'ldi: qishloq xo'jaligi va savdo tizimi yangi sharoitlarga moslashtirildi, transport va infratuzilma rivojlantirildi, ammo mahalliy madaniy va ilmiy meros cheklangan holatda qoldi.[14]

1917-yildan keyin Sovet davri boshlandi. Ushbu davrda markazlashgan siyosiy boshqaruv hukm surdi. Shu davrda ishlab chiqarish va sanoat rivojlantirildi, shuningdek, ta'lim va madaniyat tizimi yangicha tashkil etildi. Biroq, mahalliy elatning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi cheklangan bo'ldi.

1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishdi. Mustaqillik davri mamlakat tarixida tub burilish yasadi: siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida keng islohotlar boshlandi. Mustaqil O'zbekiston o'zining tarixiy merosi va zamonaviy taraqqiyotini uyg'unlashtirishga intildi, xalqaro maydonda o'z o'rnini mustahkamladi.

Shu tariqa, mustamlakachilikdan mustaqillikka o'tish O'zbekiston tarixida katta ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatning siyosiy mustaqilligi, iqtisodiy rivoji va madaniy o'sishiga asos yaratdi.

### **O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rne**

Bugungi kunda O'zbekiston xalqaro hamjamiyatda faol ishtirok etmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda xorijiy davlatlar bilan do'stona aloqalarni mustahkamlash orqali yurtimizda yashayotgan barcha millat va etnik guruhlarining madaniyati, ma'naviy qadriyatlarini hamda milliy an'ana va urf-odatlarini asrab-avaylash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda 130 dan ortiq millat va elat vakillari birgalikda tinch-totuv, ahil hamda hamjihat ruhida yashashlari natijasida ko'pmillatli xalqimizning turmush sifati tobora yaxshilanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan aytish joizki, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari va yuqori darajadagi muzokaralardagi faol ishtiroki tufayli "Dunyoga ochiqlik siyosati"ni izchil amalga oshirayotgan Yangi O'zbekistonga yangi hamkorlar va do'stlar tobora ko'paymoqda. Shuningdek, rahbarimizning xalqaro tashriflari mamlakatimizning xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalarini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, bir qator yirik davlatlar bilan munosabatlarimiz strategik sheriklik darajasiga ko'tarilganini ta'kidlash lozim. Hozirgi kunda yoshlarimiz uchun ham har xil sohalarida ko'plab imkoniyatlar yaratilgan. Shu jumladan, yurtimiz yoshlari sport va ilm-fan sohalarida ya'ni ijtimoiy, gumanitar, aniq va tabiiy fanlar yo'nalishida tur xil xalqaro olimpiadalar sovrindorlari bo'lib, yurtimiz bayrog'ini yanada balandroq ko'tarib, uni butun jahondagi o'rnini yangilashmoqda. [15]

### **Xulosa**

O'zbekiston qadimiy tarixga ega bo'lgan, ilm-fan va madaniyat markazi sifatida dunyoga tanilgan mamlakatdir. Uning hududida qadimiy davlatlar, savdo markazlari va madaniy o'choqlar shakllangan, Buyuk Ipak yo'li orqali Sharq va G'arb madaniyatlarini bog'lagan. Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy kabi allomalar faoliyati nafaqat mintaqaviy, balki jahon ilm-fani rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Amir Temur davrida esa Samarqand ilm-fan va madaniyat markaziga aylangan, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy kabi shaxslar ilmiy va adabiy

merosni boyitgan. Mustamlakachilik davridan so'ng, O'zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishib, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda keng islohotlar amalga oshirdi. "Yangi O'zbekiston" g'oyasi mamlakatni yangi bosqichga olib chiqmoqda, yoshlarga katta imkoniyatlar yaratmoqda va xalqaro maydonda O'zbekiston nufuzini oshirmoqda. Bugungi kunda mamlakat ilm-fan, madaniyat va sport sohaslarida erishayotgan yutuqlari bilan dunyoda e'tibor qozonmoqda, turli millat va elat vakillari birgalikda tinch-totuv hayot kechirmoqda. Yangi O'zbekistonning boy tarixiy merosi, zamonaviy taraqqiyoti va xalqaro maydondagi faol ishtiroki mamlakatning mustahkam kelajagiga xizmat qilmoqda.

### References:

- [1] Sh. Mirziyoyev, *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021.
- [2] Sh. Mirziyoyev, "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosat faoliyatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida," Toshkent, 2017.
- [3] I. A. Karimov, *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
- [4] I. A. Karimov, *O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida*. Toshkent: O'zbekiston, 2011.
- [5] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. Toshkent, 2022.
- [6] O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, *O'zbekistonning xalqaro hamkorlik siyosati*. Toshkent, 2020.
- [7] A. Sodiqov, *O'zbekiston tarixi*. Toshkent: Sharq, 2019.
- [8] R. Shamsutdinov va Sh. Karimov, *Vatan tarixi*. Toshkent: O'qituvchi, 2018.
- [9] N. Jo'rayev, *O'zbekiston tarixi (mustaqillik davri)*. Toshkent: Akademnashr, 2020.
- [10] BMT, *Barqaror rivojlanish maqsadlari va O'zbekiston*. Toshkent, 2021.
- [11] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, *O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi*. Toshkent, 2022.
- [12] A. Rashidov, "Yangi O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rni va nufuzi," *Iqtisodiyot va innovatsiyalar*, vol. 5, no. 2, pp. 45–52, 2022.
- [13] D. Qodirov, "Tashqi siyosatda yangi yondashuvlar va ularning samaradorligi," *Xalqaro munosabatlar jurnali*, vol. 3, no. 1, pp. 30–37, 2021.
- [14] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, *Tashqi siyosat konsepsiyasi*. Toshkent, 2019.
- [15] UNESCO, *O'zbekistonda ta'lim va madaniy hamkorlik rivoji*. Toshkent, 2021.